

Abduraxmonov Xudoynazar Abdirayimovich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Email: suhratabdurahmonov120@gmail.com

UO‘K: 811.111'367.622.14

O‘ZBEK TILIDA ABSTRAKT OTLARNING GRAMMATIK IMKONIYATLARI VA USLUBIY-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi abstrakt otlarning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, abstrakt otlarning son kategoriyasi bilan munosabati, ko‘plik affiksining semantik yuklamasi, subyektiv baho shakllari bilan qo‘llanishi hamda ularning nutqiy-uslubiy imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot jarayonida abstrakt otlarning konkret predmetlik ma’nosidan farqli ravishda tushunchaviy, ruhiy, jarayoniy va sifat mazmunini ifodalashi, shu bilan birga grammatik shakllar orqali qo‘shimcha ekspressiv va baholovchi ma’no kasb etishi aniqlanadi. Shuningdek, -lar affiksining abstrakt otlarga qo‘shilishi natijasida yuzaga keladigan umumlashtirish, kuchaytirish va emotsional-ekspressiv ma’nolar tahlil qilinadi. Maqolada abstrakt otlarning turli nutq uslublaridagi qo‘llanish xususiyatlari ham ko‘rib chiqilib, ularning funksional-pragmatik imkoniyatlari asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *abstrakt ot, semantik xususiyat, grammatik kategoriya, son kategoriyasi, ko‘plik affiksi, subyektiv baho shakllari, pragmatik ma’no, ekspressivlik, uslubiy vosita.*

Абдурахманов Худойназар Абдираимович

Каршинский государственный технический

университет, доцент

ГРАММАТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И СТИЛИСТИКО- ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АБСТРАКТНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В данной статье анализируются семантические, грамматические и прагматические особенности абстрактных существительных в узбекском языке. В частности, научно исследуется взаимосвязь абстрактных существительных с категорией числа, семантическая нагрузка аффикса множественного числа, их использование с субъективно-оценочными формами, а также их речестилистические возможности. В ходе исследования установлено, что абстрактные существительные, в отличие от своего конкретного субъектного значения, выражают концептуальное, ментальное, процедурное и качественное содержание, и одновременно приобретают дополнительные выразительные и оценочные значения посредством грамматических форм. Также анализируются обобщающие, усиливающие и эмоционально-выразительные значения, возникающие в результате добавления аффикса -s к абстрактным существительным. В статье также рассматриваются особенности использования абстрактных существительных в различных стилях речи и обосновываются их функционально-прагматические возможности.

Ключевые слова: абстрактное существительное, семантическая особенность, грамматическая категория, категория числа, аффикс множественного числа, формы субъективной оценки, прагматическое значение, выразительность, стилистический приём.

Abdurakhmanov Khudoynazar Abdiraimovich
Karshi State Technical University, Associate Professor

GRAMMATICAL POSSIBILITIES AND STYLISTICAL-PRAGMATIC FEATURES OF ABSTRACT NOUNS IN UZBEK LANGUAGE

Annotation. *This article analyzes the semantic, grammatical and pragmatic features of abstract nouns in Uzbek language. In particular, the relationship of abstract nouns with the number category, the semantic load of the plural affix, their use with subjective evaluative forms, and their speech-stylistic possibilities are scientifically examined. In the course of the research, it is determined that abstract nouns, unlike their concrete subject meaning, express conceptual, mental, procedural and qualitative content, and at the same time acquire additional expressive and evaluative meanings through grammatical forms. Also, the generalization, strengthening and emotional-expressive meanings that arise as a result of the addition of the -s affix to abstract nouns are analyzed. The article also considers the features of the use of abstract nouns in various speech styles and substantiates their functional-pragmatic possibilities.*

Keywords: *abstract noun, semantic feature, grammatical category, number category, plural affix, subjective evaluation forms, pragmatic meaning, expressiveness, stylistic device.*

Kirish

O'zbek tilida ot turkumi semantik va grammatik imkoniyatlari jihatidan eng keng va faol so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Otlar predmetlik ma'nosini ifodalashi bilan birga, son, egalik, kelishik kategoriyalarini qabul qilishi, so'z yasaliş tizimining rivojlanganligi hamda turli uslubiy vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ot turkumining ichki tasnifi, xususan, muayyan va mavhum otlarning semantik hamda grammatik xususiyatlarini o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Abstrakt otlar tilshunoslik adabiyotlarida turdosh otlarning bir turi sifatida tavsiflanib, ularning asosiy belgisi predmetning moddiy emas, balki tushunchaviy,

ruhiy, jarayoniy yoki sifat xususiyatlarini ifodalashi bilan izohlanadi. Biroq mavhum otlarning grammatik imkoniyatlari muayyan otlarnikidan farq qiladi. Xususan, ularning sanoq sonlar bilan birikish xususiyati, ko'plik shaklini qabul qilish jarayoni, subyektiv baho bildiruvchi affikslar bilan qo'llanishi hamda uslubiy vazifalari o'ziga xosdir.

Adabiyotlar tahlili

Abstrakt otlar masalasi o'zbek tilshunosligida ot turkumining ichki semantik tasnifi doirasida o'rganilgan bo'lib, bu boradagi dastlabki ilmiy qarashlar umumiy grammatika va leksikologiya tadqiqotlarida shakllangan. Xususan, A.Nurmonov, Sh.Rahmatullayev, G'.Abdurahmonov kabi olimlarning ishlarida otlarning ma'noviy guruhlari tasnif qilinarkan, mavhum otlar predmetning bevosita sezgi orqali idrok etilmaydigan tushunchaviy belgilari bilan izohlanadi. Bu tadqiqotlarda mavhumlik asosan leksik-semantik mezon asosida tavsiflangan.

O'zbek akademik grammatikalarida, jumladan, O'zbek tili grammatikasi asarida otlarning semantik turlari qatorida abstrakt otlar alohida guruh sifatida ajratilib, ularning grammatik kategoriyalar bilan munosabati qisqacha yoritilgan. Biroq mazkur manbalarda mavhum otlarning pragmatik va uslubiy imkoniyatlari chuqur tahlil etilmagan.

Leksikologiya yo'nalishidagi ishlarda, xususan, Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlarida so'z ma'nosining abstraktlashuv jarayoni, tushuncha va lisoniy birlik o'rtasidagi munosabat masalalari ko'rib chiqilgan. Bu qarashlar mavhum otlarning semantik tabiatini ochishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, mavhum otlarning ko'plik shakli orqali ekspressiv ma'no ifodalashi masalasi ayrim maqolalarda tilga olingan bo'lsa-da, ularning tizimli-pragmatik tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Jahon tilshunosligida mavhumlik masalasi ko‘proq kognitiv va falsafiy-lisoniy nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Masalan, George Lakoff va Mark Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga oid qarashlari abstrakt tushunchalarning til orqali ifodalanish mexanizmlarini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning fikricha, abstrakt tushunchalar ko‘pincha konkret tajriba asosida konseptuallashtiriladi. Bu yondashuv abstrakt otlarning semantik shakllanishini izohlashda metodologik asos bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola publitsistik va badiiy uslubga mansub matnlarda abstrakt otlarning funksional yuklamasi hamda ularni grammatik ma’nolari, grammatik almashtirish, so‘z turkumini o‘zgartirish, semantik moslashtirish, uslubiy kompensatsiya tahlil etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi o‘zbek tilida abstrakt otlarning grammatik imkoniyatlarini faqat formal mezonlar asosida emas, balki semantik va pragmatik omillar bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurati bilan belgilanadi. Zero, abstrakt otlar xalqning ma’naviyati, tafakkuri va nutq madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi.

Tahlillar va natijalar

O‘zbek tilida ot turkumiga mansub so‘zlarning semantik va grammatik imkoniyatlari miqdoriy jihatdan eng ko‘p turkum[1] sifatida nihoyatda keng hisoblanadi. Ot so‘z turkumi va uning semantik va grammatik imkoniyatlari 2006-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili praktikumi”da quyidagicha tavsiflangan: “Predmetlik ma’nosini bildiruvchi so‘zlar turkumi ot deyiladi. Ot son, egalik, kelishik kategoriyalari, turli ma’no va vazifa uchun qo‘llanadigan morfologik shakllarga, shuningdek, o‘ziga xos so‘z yasaliş tizimiga ega”[2]. Tadqiq qilayotganimiz – mavhum otlar tadqiqot, darslik va qo‘llanmalarda turdosh otlarning bir turi sifatida taqdim qilinadi[3]. Bunda turdosh otlarning muayyan va mavhum otlarga bo‘linishi ular ifodalagan tushunchaning xususiyatiga asoslanadi.

Muayyan va mavhum otlarning grammatik o'ziga xosliklari mavjud bo'lib, boshqa tillarda kuzatilgani kabi, ularning sanoq sonlar bilan sintaktik aloqaga kirishish / kirisha olmasliklarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, o'nta daftar, uchta qalam, oltita ruchka kabi birikmalar o'zbek tili uchun me'yoriy hisoblanadi. Lekin mavhum otlarning hammasi ham sanoq sonlar bilan birikma hosil qila olmaydi. Jumladan, his-tuyg'uni ifodalovchi mavhum otlarning katta qismida shu holatni kuzatishimiz mumkin. *Muhabbat, do'stlik, nafrat, tuyg'u, sokinlik, shifqat* kabi mavhum otlarning son turkumiga mansub so'zlar bilan birikma hosil qilishi mushkulligi ham fikrimizni dalillaydi. Shu bilan birga mavhum otlarning ba'zi turlari sanoq sonlar bilan birikma hosil qilishi mumkin. Buni otlarning, umuman, predmetlikni ifodalashi bilan izohlash mumkin bo'ladi. Jumladan, maslahat, tavsiya, suhbat, yaxshilik, yomonlik kabilarni sanoq sonlar bilan jonli nutqda biriktirish mumkin. Bunday birikmalarning nutqda mavjud bo'lishiga, shuningdek, sanalgan otlarning muayyan jarayonni nomlab kelishi, bu jarayonlarning esa miqdori mavjudligi ham sabab bo'ladi. Deylik, "yaxshilik" so'zi mavhum tushuncha bo'lsa-da, uning bajarilish jarayoni aniqlik kasb etishini inkor etib bo'lmaydi. Anglashiladiki, jarayon bildiruvchi mavhum otlarga birikkan sanoq sonlar tushunchaning emas, u qo'llanayotgan (ko'rsatilayotgan, bajarilayotgan) jarayonning miqdorini bildiradi.

Subyektiv baho bildiruvchi qo'shimchalarning qo'llanishi ham otlarning muayyan va mavhum turlari orasida bir xil taqsimotga ega emas. "Otlarning -cha, -choq, -chak qo'shimchalarini olgan shakli kichraytirish shakli; -gina (-kina), -qina, -jon, -xon, -oy, -boy, -bek, -toy, -poshsha, -bibbi, -nisa, -bonu qo'shimchalarini olgan shakli esa erkalash shakllari hisoblanadi"[4]. Bu turdagi qo'shimchalar so'zlovchining lug'aviy ma'no ifodalashdan tashqari shaxsiy munosabatni ham ifodalaydi. Odatda, so'zlovchining ijobiy munosabatini ifodalash uchun qo'llanadi. Shu sababli bu qo'shimchalar manbalarda "kichraytirish-erkalash shakllari" deb ham yuritiladi. Masalan:

“ERKALASH SHAKLLARI. Otlarning -gina (-kina, -qina), -jon, -xon, -oy qo‘shimchalarini olgan shakli. Mas., *kichkina, O‘rmonjon, Olimxon, Kumushoy*”[5];

“KICHRAYTIRISH SHAKLI. Otlarning -cha, -choq, -chak kabi qo‘shimchalarini olgan shakli. Mas., *uycha, o‘yinchoq, kelinchak. Oppoq kapalakchalar yer-u ko‘kni to‘ldirib to‘zib ketgan, kumush qanotchalarini ohista silkitib charx urishardi* (F.Usmonov). *Bir kun ko‘rmaganiga saman yo‘rg‘a uyda qolgan toychog‘ini eslab kishnayapti* (M.Muhamedov)”[5].

Kichraytirish-erkalash shakllarining so‘z lug‘aviy ma‘nosiga ta’siri haqida so‘z borar ekan, ba’zi tadqiqotchilar ularni hatto yangi so‘z yasashi mumkinligini e’tirof etadilar. Masalan, A.M.Sherbak -chak, -chuk, -loq, -(a)ch, -oq, -ak shakllari kichraytirish-erkalash shakllarining so‘z ma‘nosiga ta’sini e’tirof etib, ularni so‘z yasovchilar hisoblaydi[6].

Shu o‘rinda kichraytirish-erkalash shakllari pragmatik vositalar ta’sirida salbiy ma’noda qo‘llanishi ham mumkinligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. “O‘lchovi kontekst bo‘lgan holda ba’zan bu affiks obyektga subyektning salbiy emotsional-ekspressiv munosabatini – bahosini bildirishi mumkin. Bunday vaqtda ma’no so‘zlovchining obyektga nisbatan o‘zini ustun qo‘yish hissiyotiga asoslanadi: so‘zlovchi tinglovchini ma’lum so‘zga -cha affiksini qo‘shish va intonatsiyani o‘zgartirib talaffuz qilish orqali kamsitadi”[7]. Masalan:

“Hasancha bizning sinfdoshimiz edi. Kattalar uning otasini qancha “yaxshi ko‘rsa”, biz ham Hasanchaga shunday edik... Birga o‘qib, yonma-yon birga yurgan odamingiz to‘satdan oldinga o‘tib nom qozonsa, kimga yoqibdi, ayting!” (Erkin A’zam).

Keltirilgan manbada atoqli otga qo‘shilgan -cha qo‘shimchasi salbiy munosabatni ifodalayotganligi matnda qo‘llangan kinoya (“yaxshi ko‘rsa”), shuningdek, uning mazmunidan ham sezilib turibdi.

Mavhum otlarning subyektiv munosabat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllanishi soʻzlovchining pragmatik maqsadlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Nutqiy intensiyasining yuzaga chiqishiga koʻmaklashadi. Masalan:

Muhabbatjon, muhabbat, yur ketamiz, muhabbat!

Bu yerlarda gʻiybat koʻp, yur ketamiz, muhabbat! (qoʻshiqdan)

Keltirilgan namunada qoʻllangan otlarning hammasi (muhabbat, gʻiybat) mavhum otlar hisoblanadi va ulardan biriga erkalash shakli qoʻshilgan. Bu oʻrinda muallif muhabbatning nozik tuygʻu ekanligi, insonlar qalbining tub-tubida boʻlishi, shunga koʻra u nihoyatda qadrli ekanligini boʻrttirish, fikrning qabariqligini, shu orqali taʼsirchanligini oshirish uchun mavhum otga erkalash shaklini qoʻshgan, deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Tahlil qilingan holat mavhum otlarning grammatik imkoniyatlarini kengaytirgan, ularning soʻzlovchi intensiyasini yuzaga chiqarishdagi ahamiyatini oshirgan. Bunga oʻxshash misollarni koʻplab keltirish mumkin va bu oʻzbek tili jonli nutqini lingvistik qoidalar qolipi bilan chegaralash mumkin emasligini koʻrsatadi.

Shuningdek, mavhum otlarning koʻplik shaklini qabul qilishi ham muayyan otlarniki kabi boʻlmaydi. “Mavhum otlar koʻplik shaklida qoʻllanmaydi; *ezgulik, yaxshilik, mehr, muhabbat, baxt, quvonch*. Koʻplik qoʻshimchasini qabul qilganda grammatik koʻplikni emas, balki modal maʼnoni ifodalagan boʻladi”[2]. Anglashiladiki, mavhum otlarga koʻplik shakllari kategoriyaning asosiy vazifasini ifodalash (grammatik koʻplikni, yaʼni birdan ortiq noaniq miqdorni) uchun qoʻllanmaydi. Koʻplik shakli mavhum otlarga qoʻshilganda turli uslubiy vazifalar bajarishi mumkin. Chunki *-lar* shakli grammatik koʻplikdan tashqari yana quyidagi maʼnolarni ham ifodalashi mumkin: “1) “bogʻliqlik yoki oʻxshashlikka asoslangan koʻplik” – *Avvalgi sarvigullar oʻqishni tugatishdi (Sarvigulga oʻxshaganlar)*; 2) makon va zamon oʻlchovida taxminiylik – *Adashmasam, uni urib burnini qonatganimda uch yoshlarda edik* (zamon bilan bogʻliq taxminiylik); 3) kuchaytirilgan maʼno – *Tillarimga koʻcholmaydi boʻgʻzimdagi ovozim*”[8]. Koʻplik

shaklining mavhum otlarga qo'shilishi ma'noni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirishni maqsad qilib yaratilgan matnlarda kuzatiladi. Masalan:

“Halollik hosili doim xushxabar,
Kimga tangri yordir, bilmas zavollar.
Haq yo'lni ko'rsatar mahsharga qadar,
Hazrat Imkanagiy, Amir Kulollar”[9].

Keltirilgan misolda “zavol” mavhum otiga qo'shilgan ko'plik shakli grammatik ko'plikni ifodalashdan ko'ra ma'noni kuchaytirish, bo'rttirish maqsadida qo'llanganligi matnning mazmunidan sezilib turibdi.

Mavhum otlarning ba'zi turlari miqdoriy ko'plikni ham ifodalashi mumkin. Bunda mavhum otlar moddiylikka ega bo'lmagan predmetlarni ifodalasa-da, bu tushunchalar inson hayotining turli davrlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan:

“Otam soqolining egatlarida
Dunyoning oqargan muhabbatlari
Kunlarday uzun egatlarda uzilib qoldi
Etak ko'targan kunlarning zo'r qanotlari”[10].

Keltirilgan misolda qo'llangan “muhabbatlari” mavhum otida sho'ro davridagi o'zbek xalqining, jumladan, keksalarining ham og'ir turmush tarzini yanada yaqqolroq ko'rsatish (ya'ni ma'noni kuchaytirish) bilan bog'liq vazifasini bajarishdan tashqari grammatik ko'plik ma'nosi ham mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

Aslida, muayyan va mavhum otlarning ko'plik shaklida qo'llanishi ularning lug'aviy ma'nosiga ham to'g'ridan to'ri bog'liq hodisa hisoblanadi. Shu tufayli muayyan otlarning ba'zilar ham moddiylikka ega bo'lgan predmetlarni atab kelsa ham, ular ko'plik shaklida qo'llanmasligi, qo'llansa ham grammatik ko'plikni ifodalamasligi mumkin. Bunday otlar o'zbek tilidagi grammatikaga oid tadqiqot, darslik va qo'llanmalarda ham tahlil qilinadi. “Son kategoriyasi haqida fikr yuritilganda *-lar* affiksini olmaydigan otlarni farqlamoq lozim. Bunday otlarning

semantik turlari xilma-xildir. Masalan, atoqli otlar ichida *-lar* affiksini oladigan va olmaydigan otlar bor"[11]. Manba mualliflari ko'plik shaklini umuman qabul qilmaydigan atoqli otlar sifatida borliqda yagona bo'lgan samo jismlari – Quyosh, Oy kabilarni keltiradilar. Atoqli otlarning ko'plik shaklini qabul qilishida o'xshashlik ma'nosi ifodalanishi, grammatik ko'plik ma'nosi esa ikkilamchi ekanligi sir emas. Shuningdek, sanalmaydigan, balki o'lchanadigan otlarga ham ko'plik shakli qo'shilmasligi, qo'shilganda ham grammatik ko'plik emas, balki nav, xil ma'nosi ifodalanishida pragmatik omillarning ta'sirini M.Ernazarova o'z tadqiqotida ochib bergan. Bunda vaziyat omili nutq sharoiti va makon bilan bog'liq holda grammatik ma'noni voqelantirishda muhim rol o'ynashi [-lar] grammatik shakli «turli», «har xil» ma'nolarini ifodalash uchun ma'lum bir vaziyat va sharoit, joy talab etishi orqali ochib berilgan. "Gap tarkibidan chiqarilgan *suvlar* so'zidan "kuchaytirish" ma'nosi ham, "ko'plik" ma'nosi ham uqilishi mumkin. Lekin u oziq-ovqat do'koni yoki bozorda, umuman olganda, savdo-sotiq bilan bog'liq maskanda "turli", "har xil" ma'nosini yuzaga chiqaradi. Rasmiy muloqot vaziyatida esa grammatik shaklning, albatta, "kuchaytirish" ma'nosini yuzaga chiqarishining imkoni ma'lum darajada cheklangan bo'ladi"[12]. Mavhum otlar ba'zi manbalarda "son-miqdor xususiyatiga ega bo'lmaganligi" uchun ko'plik shaklida qo'llanmasligi, -lar affiksi bu tipdagi otlarga grammatik ko'plik ma'nosini emas, boshqa uslubiy ma'nolarni ifodalash uchun qo'shilishi aytiladi: "Mavhum tushunchalarni bildiradigan sevgi, uyqu, kambag'allik, aql, ko'ngil kabi otlarning ayrimlari *-lar* affiksi bilan qo'llanishi ham mumkin. Bu holda ko'plik ma'nosi ifodalanmaydi, balki ma'no kuchaytiriladi: *Ko'ngillarim ozib ketdi. Uyqularim qochib ketdi*"[11]. Darhaqiqat, keltirilgan misollardagi *ko'ngil* va *uyqu* so'zlariga qo'shilgan ko'plik shakli so'zlovchining ruhiy holatida bo'layotgan o'zgarishlarni, voqealarning unga bo'lgan ta'sirini bo'rttirib ifodalash uchun xizmat qilgan. Anglashiladiki, son kategoriyasi, xususan, ko'plik shaklining qo'shilishi / qo'shilmasligi mavhum otlarning muhim belgisi,

grammatik o'ziga xosligi sifatida qaralishi mumkin. Bunda tadqiqotchi *-lar* affiksining mavhum otlarga ham qo'shilishi mumkinligini hisobga olishi lozim.

Mavhum otlarning adabiy tilning turli uslublarida qo'llanishidagi muayyan otlardan farqlari ularning ham semantik, ham grammatik o'ziga xosliklari sifatida baholanishi mumkin. Buni turli nutq uslublariga oid matnlar vositasida tekshirish mumkin bo'ladi. Garchi mavhum otlar muayyan xalqning ma'naviyati, madaniyatini o'zida aks ettiruvchi so'zlar sanalsa-da, so'zlashuv uslubida ham ularga murojaat qilinadi. Masalan:

“ – Qiz otasiga tortgan bo'lishi kerak. Bu sizning baxtingiz, – dedi va rumkadagi vinoni ko'tarib Qoplonbeknikiga cho'qishtirdi: – Sizning baxtingiz uchun, bek!

– Sizning ham!

– Bizniki baxt emas, bek, endi bundan bu yog'i xizmat. Sizning baxtingiz bizning xizmatga egizak bo'lishi uchun, bek!”[13].

Keltirilgan misolda qo'llangan mavhum otlar (baxt, xizmat) matnning mazmuniga va nutq vaziyati va ishtirokchilariga mos tanlangan. Masalan, “baxt” tushunchasini ifodalash uchun o'zbek tilida yana *iqbol, tole, saodat* so'zlari ham qo'llanishi mumkin edi:

“БАХТ, ИҚБОЛ, ТОЛЕ, САОДАТ. Турмушдан мамнунлик ҳолати, турмушдан мамнун этувчи нарса. Иқбол асосан бадий услубга хос. Толе “бахт”, “иқбол” маъносига нисбатан “омад” маъносида кўп қўлланади. Саодат кўпроқ китобий услубга хос, якка сўз ҳолида кам қўлланади”[14].

Lug'at maqolasida keltirilgan ma'lumotlar ham ijodkorning asar qahramonlari saviyasi va nutq vaziyati uchun eng qulay bo'lgan so'z (baxt) tanlaganligini ko'rsatib turibdi. Zero *iqbol, tole, saodat* so'zlari so'zlashuv uslubiga mansub bo'lgan muloqot matni uchun mos kelmagan bo'lar edi.

O'zbek tilida mavhum otlarning semantik va grammatik xususiyatlari ot turkumiga mansub boshqa so'zlardan farqlanadi. Bu farqlar nafaqat umumiy

lingvistik qoidalar asosida, balki nutq vaziyati, uslubi, muloqot qiluvchilarning yoshi, jinsi, dunyoqarashi va bilimiga ko'ra ham o'zgarishi mumkin.

Mavhum otlar o'zbek tilida turli nutq uslublarida har xil maqsadlarda qo'llanadi. Masalan: so'zlashuv uslubida, asosan, salbiy bo'yoqqa ega bo'lgan mavhum otlardan foydalanilsa, ilmiy uslubda muayyan sohaga oid atamalarni anglatuvchi mavhum otlarga murojaat qilinadi. Badiiy uslubda esa obrazlilikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mavhum otlar salmoqli o'rin tutadi. Bu turlichaliklar nutq uslublarining xususiyatlari bilan bog'liq. O'zbek tilida mavhum otlarni nutq uslublari bo'yicha taqsimlash mavhum otlarga doir tadqiqotlar, so'z tanlash va qo'llashga doir ishlarda muvaffaqiyat keltiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot o'zbek tilida absrtakt otlarning qo'llanishi hamda ularni uslubiy vazifalari, leksik-semantik va grammatik muammolarni tahliliy o'rganishga bag'ishlandi. Tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

zamonaviy lingvopragmatik va funksional yondashuvlarda absrtakt otlarning nutqiy vazifasi, baholovchi va ekspressiv ma'no hosil qilishdagi roli alohida e'tiborga olinmoqda. Biroq o'zbek tilshunosligida mavhum otlarning subyektiv baho shakllari bilan qo'llanishi, ularning uslubiy imkoniyatlari va kontekstual transformatsiyasi masalalari hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

-tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, mavhum otlar:

-asosan semantik tasnif doirasida o'rganilgan;

-grammatik imkoniyatlari qisman yoritilgan;

-pragmatik va uslubiy jihatlari esa yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Demak, absrtakt otlarning son kategoriyasi bilan munosabati, ko'plik shaklining semantik-pragmatik yuklamasi hamda subyektiv baho shakllari orqali yuzaga keladigan ekspressivlikni tizimli ravishda o'rganish mazkur maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliyorov O'. O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. fan. bo'yicha fal. dok-ri. diss. avtoref. – Termiz, 2021. – B. 16.
2. Asqarova M., Yunusov R., Yo'ldoshev M., Muhamedova D., O'zbek tili praktikumi, – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya. 2006. – B.113.
3. Mengliyev B.R., Xoliyorov O', Abdurahmonova N., O'zbek tilidan universal qo'llanma, – Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr. – 222 b.
4. Shukurov O., Boymatova B., Ona tili. – Qarshi: Fan va ta'lim. 2021. – B. 79.
5. Mahkamov N., Ermatov I., Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati, – Toshkent: Fan. 2013. – B. 33,60.
6. Шербак А. М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. 1962, – С. 125-127.
7. Қўнғуров Р., Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари, – Тошкент: Фан. 1980. – Б. 69.
- 8 Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N., Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2019. – B.269.
9. Majid G', Bunda bulbul kitob o'qiydi, – Toshkent: Mashhur-Press. 2018. – B. 143.
10. Ashur S., Katta oftob. – Toshkent: Akademnashr. 2013. – B.110.
11. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи. 1980. – Б.218-119.
12. Ernazarova M., Grammatik ma'no lisoniy va pragmatik omillar hamkorligida, filol. fanl. dokt. (DSc) diss. – Samarqand. 2018. – B. 155-156.
13. Shuhrat., Jannat qidirganlar, – Toshkent: Qaldirg'och, 2018. – B. 100.
14. Ҳожиёв А., Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, – Тошкент: Ўқитувчи. 1974. – Б. 50.